

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

4-2022

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

B.Shermuhammadov	
Xalq ardog'idagi til - mangu barhayot.....	6
	PEDAGOGIKA
T.Egamberdiyeva, O.Ashurova	
Bo'lajak maktabgacha ta'lim mutaxassislarining ekoestetik madaniyatini rivojlantirishning tahliliy omillari.	9
U.Maqsudov, R.Rahmonova	
Ommaviy axborot vositalari mediasavodxonlik kompetensiyalarini shakllantirish obyekti sifatida.....	12
M.Suyunova	
Pedagogik tadqiqotlarning o'ziga xos xususiyatlari va uni tashkil etish tamoyillari.....	17
N.Saidova, B.Abdullayeva	
Bo'lajak boshlangich sinf o'qituvchilarining axborot-kommunikativ kompetentligini rivojlantirishni modeli.....	20
X.Tojiboyeva	
O'smir yoshdagi o'quvchilarda gender o'z-o'zini anglash ko'nikmalarini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari.....	24
A.Kalliyev	
Ijodkor talabalar bilan ishlashda pedagoglik mahorati va usullar	27
I.Usmonaliyev	
Tarixiy tafakkur orqali bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash omillari usullarini pedagogik taxlili.....	32
	FALSAFA, SIYOSAT
A.Yuldashov	
O'zbekistonda intellektual mulk huquqi muhofazasini ta'minlashda ta'limning ahamiyati.....	37
Q.Aliqulov	
Innovatsion va transformatsion o'zgarishlarning yoshlar iqtisodiy faolligiga ta'siri	41
	TARIX
X.Boymirzayev, Z.Jobborov	
Sovet hukumatida 20-30 yillarda amalga oshirilgan targ'ibot-tashviqot ishlari tarixidan.....	46
X.Mamajonov	
Amir Temur davlati va oltin o'rda o'rtasidagi manfaatlar to'qnashuvi va diplomatik aloqalarning boshlanishi.....	49
A.Aloxunov, A.Mamasiddiqov	
Farg'ona vodiysidagi dalvarzin yodgorligining mudofaa tizimi xususida	53
A.Abduxalimov	
Vodiy viloyatlari qishloq aholisining ijtimoiy jihatdan muhofaza qilinishi	57
I.Yusupov	
O'zbekistonda hududiy telekanallarning tashkil etilishi va rivojlanish tarixi	62
I.Turdiyev	
Jizzax vohasi aholisining oila va nikoh bilan bog'liq an'analari va Marosimlari	67
Liang Yun, Xi Tongyuan, Ra'nogul Yusuf, N.Kambarov	
O'zbekistonning Samarqand shaxridagi Sazagan yodgorligining M11 qabrida olib borilgan qazuv tadqiqotining hisoboti	70
	ADABIYOTSHUNOSLIK
L.Axmadaliyev	
Po'latjon Qayyumiy zamondoshlari xotirasida	85

XALQ ARDOG'IDAGI TIL - MANGU BARHAYOT

ЯЗЫК, КОТОРОГО УВАЖАЕТ НАРОД - ЖИВЁТ ВЕЧНОСТЬ

A LANGUAGE THAT IS RESPECTED BY THE PEOPLE - LIVES FOREVER

Bahodirjon SHERMUHAMMADOV¹¹Bahodirjon SHERMUHAMMADOV

– Farg'ona davlat universiteti rektori, pedagogika fanlari doktori, professor.

Annotatsiya

Maqolada o'zbek tilining mustahkam huquqiy asosi haqida va munosib maqomga ega bo'lgan davlat tilimiz yangi rivojlanish va yuksalish bosqichiga ko'tarilayotganligi xususida fikr yuritilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqei tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi hamda «Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmonlari imzolanganligi, yurtimizda Davlat tilini rivojlantirish departamenti tashkil etilganligi, shuningdek, 2020-2030 yillarda o'zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi va mazkur konsepsiyani 2020-2022 yillarda amalga oshirish dasturi qabul qilinib, bu orqali o'zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari belgilab berilganligi va bu borada olib borilayotgan keng ko'lamdagi islohotlar davlat tilining rivojlanishiga keng yo'l ochib berishi misollarda yoritilgan.

Аннотация

В статье говорилось о прочной правовой основе узбекского языка и о том, что наш государственный язык, имеющий достойный статус, выходит на новый этап развития и становления. Подписаны указы Президента Республики Узбекистан “О мерах по кардинальному повышению престижа и статуса узбекского языка в качестве государственного” и “о мерах по дальнейшему развитию узбекского языка и совершенствованию языковой политики в нашей стране”, создан департамент развития государственного языка в нашей стране, а также концепция развития узбекского языка и совершенствования языковой политики в 2020-2030 годах и принята программа реализации данной концепции на 2020-2022 годы, на примерах видно, что определены основные направления развития узбекского языка и совершенствования языковой политики, а проводимые в этом направлении широкомасштабные реформы открывают широкие возможности для развития государственного языка.

Abstract

The article spoke about the solid legal basis of the Uzbek language and that our state language, which has a decent status, is entering a new stage of development and formation. The decrees of the President of the Republic of Uzbekistan “On measures to radically increase the prestige and status of the Uzbek language as the state language” and “on measures for the further development of the Uzbek language and improvement of language policy in our country” were signed, the Department for the development of the state language in our country was established, as well as the concept of the development of the Uzbek language and improvement of language policy in 2020-2030 and a program for the implementation of this concept for 2020-2022 has been adopted, examples show, that the main directions of the development of the Uzbek language and the improvement of language policy have been identified, and the large-scale reforms carried out in this direction open up wide opportunities for the development of the state language.

Kalit so'zlar: davlat tili, til siyosati o'zbek tilini rivojlantirish, huquqiy asosi**Ключевые слова:** государственный язык, языковая политика развитие узбекского языка, правовая основа.**Key words:** state language, language policy, development of the Uzbek language, legal basis.

Har birimiz davlat tiliga bo'lgan e'tiborni mustaqillikka bo'lgan e'tibor deb, davlat tiliga ehtirom va sadoqatni ona Vatanga ehtirom va sadoqat deb bilishimiz, shunday qarashni hayotimiz qoidasiga aylantirishimiz lozim.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev**KIRISH**

Tarix haqiqati shuni ko'rsatadiki, tomirida milliy g'urur, Vatan ishq jo'sh urgan insongina buyuk ishlarga qodir bo'ladi. Insonning o'z ona tiliga muhabbati ham, Vatani, millati, o'zligiga muhabbati bilan tenglashtiriladi. Ma'rifatparvar adib, jadidchilik harakatining yorqin namoyondasi Abdulla Avloniy “Har bir millatning dunyoda borlig'ini ko'rsatadurg'on oinai hayoti til va adabiyotdur. Milliy tilni yo'qotmak – millatning ruhini yo'qotmakdur” deya ta'kidlaganlar. Darhaqiqat, til – millat ruhi, g'ururi va nomusidir. Xalqning o'z ona tiliga sadoqati milliy o'zligiga sadoqatini namoyon etadi.

Barchamizga ma'lumki, bundan 33 yil muqaddam mamlakatimiz mustaqillikka erishish yo'lida eng dadil va eng sharafli qadamni qo'ydi, ya'ni - "O'zbekiston Respublikasining davlat tili to'g'risida"gi qonunni qabul qildi. Bu esa yurt hayotidagi yuksak voqelik sifatida tarixga muhurlandi.

O'zbek tiliga davlat tili maqomini berilishi xalqimizning o'z huquq va manfaatlarini himoya qilishdagi muhim odim sifatida e'tirof etiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Tarixan ma'lumki, o'zbek tili – turkiy tillar oilasiga mansub, boy adabiy xazinasiga bilan dunyo olimlarini o'ziga mahliyo etib kelayotgan yirik tillardan biridir. Dunyodagi qadimiy va boy, turkiy tillarning katta oilasiga mansub o'zbek tili tarixi xalqimizning ko'p asrlik kechmishi, orzu-intilishlari, dardu-armonlari va zafarlari bilan chambarchas bog'liqdir. Bizning ajdodlarimiz aynan shu til orqali jahon ilm-fani tamadduniga munosib hissasini qo'shgan. Buyuk mutafakkir Mir Alisher Navoiy "Muhokamat ul-lug'atayn" asarida ushbu tilning ilmiy, badiiy va adabiy imkoniyatlari nechog'lik keng ekanini inkor etib bo'lmas dalillar bilan ifoda etgan.

NATIJALAR

So'nggi yillarda O'zbekistonda amalga oshirilayotgan o'zgarishlar va yangilanishlar qatorida ona tilimiz qadri va nufuzini yanada oshirishga qaratilgan islohotlar ham yangi bosqichga ko'tarildi. O'zbek tilining davlat tili sifatidagi maqomi va obro'-e'tiborini tubdan oshirish bo'yicha qabul qilingan qonun hujjatlari buning yorqin ifodasidir. Muhtaram Prezidentimizning kuchli yuksak siyosiy irodasi va xalqparvarligi, davlat tiliga bo'lgan yuksak hurmati - tilimiz qadrini nafaqat mamlakatda, balki jahon miqyosida ham yuqori pog'onalarga olib chiqdi. Ayniqsa, ona tilimiz Birlashgan Millatlar Tashkilotining yuksak minbarida, ulkan siyosiy sammit va uchrashuvlarda baralla yangrab, tinchlik, do'stlik va hamkorlik vositasiga aylanib borayotgani barchamizni quvontiradi.

O'zining mustahkam huquqiy asosi va munosib maqomiga ega bo'lgan ona tilimiz bugun yangi rivojlanish va yuksalish bosqichiga ko'tarilib bormoqda. O'zbek tilining xalqimiz ijtimoiy hayotida va xalqaro miqyosdagi obro'-e'tiborini tubdan oshirish, unib-o'sib kelayotgan yoshlarimizni vatanparvarlik, milliy an'ana va qadriyatlarga sadoqat, ulug' ajdodlarimizning boy merosiga hurmat ruhida tarbiyalash maqsadida bunda uch yil muqaddam O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, ikki yil avval esa «Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmonlari imzolandi va hayotga tatbiq etildi. Bu boradagi izchil islohotlar davom etib, yurtimizda Davlat tilini rivojlantirish departamenti tashkil etildi. Shuningdek, 2020-2030 yillarda o'zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi va mazkur konsepsiyani 2020-2022 yillarda amalga oshirish dasturi qabul qilinib, bu orqali o'zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari belgilab berildi. Aytish kerakki, mazkur konsepsiyada belgilangan vazifalar davlat tilining rivojlanishiga keng yo'l ochib berdi.

MUHOKAMA

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining "Mamlakatda davlat tilida ish yuritishni samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga asosan, mamlakatimizdagi ko'cha, atamalar, tashkilotlarning nomlari, peshlavhalar, ommaviy targ'ibot vositalari, reklama va e'lonlar, shuningdek, idoraviy ish qog'ozlar, turli blanklar lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosida bo'lishi kerakligi belgilab qo'yildi. Vazirlik va idoralar rahbarlari hamda hodimlarining "Davlat tilida ish yuritish asoslari" bo'yicha malakasini oshirish va qayta tayyorlash tizimi joriy qilindi, respublika tilshunos olimlari tomonidan fundamental fanlar, zamonaviy axborot texnologiyalari, sanoat, bank-moliya tizimi, qishloq ho'jaligi, harbiy va shu kabi sohalarda o'zbek tilini qo'llanish doirasini kengaytirishga oid ko'rsatma va tavsiyalar ishlab chiqildi. Shuningdek, zamonaviy darsliklar, etimologik va qiyosiy lug'atlar nashr qilishga, atamalarning elektron lug'ati va mobil ilovalarni yaratish ishlariga katta ahamiyat qaratilmoqda.

E'tirof etish joizki, o'zbek tilining istiqboli, tom ma'nodagi barhayotligi yosh avlod qalbiga ona tiliga muhabbat, milliy g'urur tuyg'ularini singdirish vazifalarini ado etishda ta'lim muassasalarining o'rni beqiyosdir. Bu borada Farg'ona davlat universiteti nafaqat tilimiz fidoyilarini kamolga yetkazish, balki har bir yoshni o'z ona tiliga sadoqatli etib tarbiyalashga alohida e'tibor qaratgan. Yaqinda oliygohda o'tkazilgan "Davlat tili nufuzi va mavqeini oshirish: muammo va yechimlar" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjumanda davlat tilining ilm-fan tili sifatidagi nufuzini oshirish, o'zbek tilini sofligini saqlash, uni boyitib borish va aholining nutq madaniyatini oshirish kabi masalalariga alohida e'tibor qaratilib, unda Turkiya, Rossiya, Ozarbayjon, Tojikiston, Qozog'iston, Qirg'iziston kabi 20 tadan ortiq mamlakatdan, shuningdek, respublikamizning barcha

viloyatlaridan 180 nafarga yaqin yetakchi tishunos olimlar ishtirok etdilar. Shuningdek, xorijlik tilshunoslar turkiy tillarning umumiy va o'ziga xos xususiyatlari, o'zbek tilini jozibadorligi, xorijdagi oliy o'quv yurtlarida o'zbek tilining o'rganilishi haqidagi ma'ruzalari bilan qatnashdilar.

Davlat tilini keng targ'ib qilish va rivojlantirish maqsadida universitet miqyosida "Boqiysan, iftiharimsan, ona tilim" shiori ostida professor-o'qituvchilar hamda talabalar ishtirokida tadbir tashkillanib, ona tilimizning qadim boy tarixi, davlat tilining bugungi kuni va istiqboli to'g'risida chuqur fikr-mulohazalar, ilmiy tahlillar olib borildiki, unda ishtirok etgan talaba-yoshlar o'z so'zlashayotgan tilining qudratini qalban his etdilar. Bu boradagi yoshlar bilan olib borayotgan targ'ibot ishlarimiz hali davom etadi. Chunki oliygoh jamoasining o'z oldiga qo'ygan maqsadlari orasida tiliga, millatiga, ulg'ayayotgan zaminiga mehri-muhabbati bo'lgan yoshlarni tarbiyalash vazifasi ustuvordir.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, tilsiz xalq va xalqsiz til bo'lmagan. Xalq tilning tillo beshigida balog'atga yetadi, til esa o'z sohibi bo'lmish xalqning qalbidan kuch oladi, uning ardog'ida o'zligini topadi. Til xalq birligining, xalq esa til barhayotligining ifodasidir. Shunday ekan, o'zbek millatining ma'naviy boyligi – ona tilini yuksaltirish, milliy qadriyat sifatida e'zozlash, uni xalqaro darajaga ko'tarish - barchamizning Vatan oldidagi muqaddas burchimizdir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 21.10.2019 йилдаги ПФ-5850-сонли «Ўзбек тилининг давлат тили сифатидаги нуфузи ва мавқеини тубдан ошириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги Фармони / <https://lex.uz/docs/4561730>.

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 20.10.2020 йилдаги ПФ-6084-сонли «Мамлакатимизда ўзбек тилини янада ривожлантириш ва тил сиёсатини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги Фармони// <https://lex.uz/docs/5058351>